

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Муратов Абдулазиз Уктамович	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	



QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

Abdullayev Axror Jaxbarovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, i.f.f.d., dotsent

Email: Abdullayev.a.77@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Qurilish tarmog'ining iqtisodiyotdagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, qurilish sanoatida tadbirkorlik rivojlanishini baholashning kompleks mezonlari ishlab chiqilib, moliyaviy barqarorlik, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik va bandlik ko'rsatkichlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari qurilish sohasida tadbirkorlikni samarali rivojlantirish va tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, tadbirkorlik, kichik biznes, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik, baholash mezonlari, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-методологические основы развития предпринимательской деятельности в строительной отрасли. Проанализированы роль строительного сектора в экономике, его специфические особенности и факторы, влияющие на деятельность субъектов предпринимательства. Кроме того, разработаны комплексные критерии оценки развития предпринимательства в строительной отрасли, раскрыта значимость показателей финансовой устойчивости, инвестиционной активности, инновационного развития, конкурентоспособности и занятости. Результаты исследования способствуют формированию научно обоснованных выводов по эффективному развитию предпринимательства и повышению инвестиционной привлекательности строительной отрасли.

Ключевые слова: строительная отрасль, предпринимательство, малый бизнес, инвестиционная активность, инновационное развитие, конкурентоспособность, финансовая устойчивость, критерии оценки, экономическая эффективность.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of entrepreneurship development in the construction industry. The study analyzes the role of the construction sector in the economy, its specific characteristics, and the factors influencing entrepreneurial activity. In addition, a comprehensive system of indicators for assessing entrepreneurship development in the construction industry is proposed, highlighting the importance of financial stability, investment activity, innovation, competitiveness, and employment. The findings contribute to the development of scientific recommendations aimed at enhancing entrepreneurial performance and increasing the investment attractiveness of the construction sector.

Keywords: construction industry, entrepreneurship, small business, investment activity, innovation development, competitiveness, financial stability, assessment criteria, economic efficiency.

KIRISH

Globalashuv chuqurlashib, xalqaro raqobat kuchayib, innovatsiya talablari ortib borayotgan bugungi kunda tadbirkorlikni rivojlantirish milliy iqtisodiyot barqarorligining asosiy omillaridan biriga aylandi. OECD va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes dunyo mamlakatlarida YaIMning yarmidan ko'prog'ini tashkil etib, mehnat bozorida ish o'rinlarining taxminan uchdan ikki qismini qamrab oladi [1].

Qurilish sanoati esa uy-joy, sanoat, infratuzilma, logistika va loyiha xizmatlari kabi ko'plab yo'nalishlarni o'zida birlashtirgan murakkab tarmoq bo'lib, xususiy sektorni faollashtirish va investitsiyalarni kengaytirishni talab etadi. Bu tarmoqdagi tadbirkorlikni faqat alohida korxonada darajasida emas, balki butun milliy iqtisodiyot miqyosida ilmiy asosda o'rganish zarurati borgan sari ortib bormoqda.

Qurilish sohasida tadbirkorlik samaradorligi ko'p omillarga — moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatiga, davlat qo'llab-quvvatlashi sifatiga, raqobat muhitiga, huquqiy tartibga solish shaffofligiga va innovatsion texnologiyalar

joriy etilish darajasiga bog'liq. Shu bois ushbu tarmoqqa xos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va raqobatbardoshlikni oshirish ilmiy jihatdan dolzarb masalaga aylangan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususi sektor ulushini oshirish va infratuzilma loyihalarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qurilish tadbirkorligi uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Shu bilan birga, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, kichik va o'rta biznesning yirik loyihalardagi ishtirokini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ko'lamini oshirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va hududlar o'rtasidagi tadbirkorlik infratuzilmasini yanada muvozanatli rivojlantirish bu yo'nalishda chuqur tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar qurilish sanoatida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay zamin yaratmoqda. 2017–2021-yillardagi Harakatlar strategiyasidan boshlab, keyinchalik "Taraqqiyot strategiyasi — 2022–2026" doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qurilish sohasida xususi sektorni kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi [2].

Mazkur maqola qurilish sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish, uni baholash mezonlarini takomillashtirish va strategik boshqaruv yondashuvlarini asoslashga bag'ishlangan bo'lib, uning natijalari tarmoqda investitsion jozibadorlikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi kutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish sohasida kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishiga oid nazariy-metodologik masalalar xorijlik ko'plab tadqiqotchilar — Voynarenko M.P., Xyubner V., Vasyutichev A.V., Gerber Maykl E., Gorfinkel V.Ya., Moseyko V.O., Yekimova K.V., Rube V.A., Xizrich R., Piters M., Bruksbank R., Uotermen R. va A. Xosking kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng o'rin egallagan [3; 4; 5; 6].

"Tadbirkor" va "tadbirkorlik" tushunchalariga nisbatan iqtisodchilar orasida yagona qarash hali ham shakllanmagan — bu borada turli xil ta'riflar va yondashuvlar mavjud. Mashhur amerikalik iqtisodchi P.F. Druker ham ushbu muammoga alohida e'tibor qaratgan: Sey tomonidan kiritilganiga yillar o'tgan bo'lsa-da, "tadbirkor" va "tadbirkorlik" atamalarining mazmuni hamon tortishuvli bo'lib qolayotganini ta'kidlagan.

Professor Robert Xizrich tadbirkorlikni yangi, iqtisodiy qiymatga ega mahsulot yoki xizmat yaratish jarayoni sifatida izohlagan. Uning fikricha, tadbirkor — bu ushbu jarayonni amalga oshirish uchun o'z vaqti va mehnatini bag'ishlaydigan, moliyaviy, ruhiy va ijtimoiy xatarlarni o'z zimmasiga oladigan, buning evaziga moddiy daromad va shaxsiy qoniqish qozonuvchi shaxsdir.


Professor Alan Xosking esa yakka tartibdagi tadbirkorni o'z kapitalini biznesga sarflaydigan, uni mustaqil boshqaradigan va barcha qarorlar uchun shaxsan javobgar bo'lgan kishi sifatida ta'riflagan. Bunday shaxs faoliyatidan daromad olish bilan birga, korxonada inqirozga uchragan taqdirda ham barcha oqibatlarni yolg'iz o'zi ko'tarishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik omillari hamda O'zbekistondagi holatini solishtirma tahlil qilish asosiy maqsad qilib olingan. Tadqiqotda qurilish sohasida kichik biznes va xususi tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan taklif va tavsiyalar hamda tegishli statistik ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlashda zamonaviy statistik usullar va kuzatuvlar, qiyosiy va tizimli, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sanoati bevosita qurilish ishlaridan tashqari, bir qator yondosh faoliyat turlarini ham o'z ichiga oladi. Jumladan, qurilish kompaniyalari uchun mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va sotish shular jumlasidandir (1-rasm).



1-rasm. Qurilish sohasining o'ziga xos xususiyatlari¹

Qurilish sanoati iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan mavjud o'zaro bog'liqligi tufayli undan samaradorlikni doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi. Bu esa qurilish muddatlarini qisqartirish, ishlar sifatini yaxshilash hamda xarajatlarni kamaytirishni nazarda tutadi.

Qurilish sanoati tarmog'i iqtisodiyotning muhim va o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, yaratiladigan mahsulot — bino va inshootlar ko'chmas mulk hisoblanadi va ularni tayyor holda boshqa joyga ko'chirish mumkin emas.

Qurilish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bu soha doimiy va o'zgarmas ish joyiga ega emas. Boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq, qurilish korxonalarini va ularning xodimlar tarkibi har bir yangi obyekt quriladigan hududga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. Bu holat nafaqat mehnat kuchini, balki maxsus texnika va uskunalarni ham doimiy ravishda yangi sharoitlarga moslashtirish, transport xarajatlarini optimallashtirish va logistik zanjirlarni qaytadan tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Qurilish tarmog'i o'zining resurs sig'imkorligi jihatidan ham alohida o'rin egallaydi. Har bir qurilish loyihasini amalga oshirish uchun katta hajmdagi moliyaviy kapital, turli xil qurilish materiallari (sement, po'lat, g'isht, shisha, izolyatsiya materiallari va boshqalar), og'ir va maxsus texnikalar (kranlar, ekskavatorlar, beton qorishtirgichlar, qoziqlama mashinalari va h.k.) hamda yuqori malakali mutaxassislar — muhandis-quruvchilar, texnologlar, loyiha menejerlari va tajribali ishchilar — bir vaqtda jamlangan holda ishtirok etishi lozim.

Tarmoqning yana bir muhim xususiyati — ishlab chiqarish jarayonining mavsumiy tabiatga qaramligi. Qurilish ishlari, ayniqsa yer qazish, poydevor qurish, tashqi devor va tom ishlari ko'p hollarda ob-havo sharoitlariga bevosita bog'liq. Sovuq va yog'ingarchilik fasllari ishlar jadvalini sekinlashtiradi, ba'zan esa butunlay to'xtatib qo'yadi. Bu holat mehnat resurslarini boshqarishda, moliyaviy rejalashtirishda va pul oqimlarini boshqarishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi.

Ishlab chiqarish siklining uzoq davom etishi ham qurilish sanoatini boshqa tarmoqlardan ajratib turadigan muhim omil hisoblanadi. Agar odatdagi ishlab chiqarish korxonasi mahsulotni kunlar yoki haftalar ichida yaratsa, qurilish loyihalari — ayniqsa ko'p qavatli turar-joy majmualari, sanoat obyektlari yoki yirik infratuzilma inshootlari — bir necha oydan to bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Bu esa katta hajmdagi moliyaviy resurslarni uzoq muddatga «muzlatib» qo'yadi va investitsiyalarning qaytim muddatini uzaytiradi.

Qurilish sanoatining yana bir tavsiflovchi belgisi — uning boshqa tarmoqlar bilan chambarchas va uzviy bog'liqligi. Har bir qurilish loyihasi amalga oshirilishi jarayonida sanoat korxonalarini (metall, sement, shisha,

1 Manba: Muallif ishlanmasi.

plastmassa va boshqa materiallar ishlab chiqaruvchilar), transport va logistika kompaniyalari, energetika tarmoqlari (elektr, gaz, suv ta'minoti), loyiha va muhandislik tashkilotlari hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi yuzlab kichik va o'rta korxonalar bilan o'zaro hamkorlik amalga oshiriladi. Shu bois qurilish sanoatidagi har qanday o'sish yoki inqiroz qo'shni tarmoqlarga ham tezda ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish sanoati korxonalarining mohiyatini to'liq tushunish uchun uning to'g'ri ta'rifini berish muhim: qurilish sanoati — bu ma'lum bir mamlakat hududida turar-joy va noturar joy binolari, muhandislik inshootlari hamda infratuzilma obyektlarini loyihalash, qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidan iborat murakkab tizimdir.

Qurilish sanoatidagi tadbirkorlik subyektlari rivojlanishini baholashda faqat korxonalar sonining o'sishiga tayanish yuzaki va noto'g'ri yondashuv hisoblanadi, chunki bunday baholash tarmoqning haqiqiy iqtisodiy salohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Buning o'rniga, rivojlanish darajasini aniqlash uchun miqdoriy, sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi kompleks baholash tizimidan foydalanish ilmiy jihatdan asoslidir (1-jadval).

1-jadval

Qurilish sanoatida tadbirkorlik subyektlari rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari²

№	Baholash yo'nalishlari	Asosiy ko'rsatkichlar
1	Subyektlar soni va faolligi	Yangidan tashkil etilgan korxonalar soni, faoliyat yuritayotgan subyektlar ulushi, tugatilgan korxonalar soni
2	Iqtisodiy natijalar	Tushum, foyda, rentabellik, ishlab chiqarish hajmi, bajarilgan qurilish ishlari hajmi
3	Moliyaviy barqarorlik	Likvidlik, to'lov qobiliyati, qarz yuki, o'z mablag'lari ulushi
4	Investitsion faollik	Asosiy kapitalga investitsiyalar, yangi texnika va texnologiyalarga sarflar
5	Bandlikka ta'siri	Yaratilgan ish o'rinlari, xodimlar soni, mehnat unumdorligi
6	Innovatsion rivojlanish	Yangi texnologiyalar, BIM, raqamli boshqaruv, yangi mahsulot yoki xizmatlar
7	Raqobatbardoshlik	Bozor ulushi, tenderlarda ishtirok va g'oliblik, mahsulot sifati, narx ustunligi
8	Resurslardan foydalanish	Material, energiya, texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanish
9	Hududiy ta'sir	Hududda qurilish hajmi, infratuzilma rivoji, mahalliy ish o'rinlari

Xususan, qurilish sanoatida tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar orqali kompleks baholanadi: tadbirkorlik faolligi (yangi loyihalarga kirishish, tender jarayonlaridagi ishtirok darajasi), moliyaviy barqarorlik (likvidlik, to'lov qobiliyati va o'z kapitalining yetariligi), band qilingan ish o'rinlari soni va mehnat unumdorligi, investitsion faollik (asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan mablag'lar miqdori), innovatsion rivojlanish (yangi texnologiyalar va qurilish usullarini joriy etish darajasi), raqobatbardoshlik (mahsulot va xizmatlar sifati, narx ustunligi, mijozlar qoniqishi) hamda bozordagi ulush ko'rsatkichlari. Faqat ushbu ko'rsatkichlar yig'indisini tahlil qilish orqali qurilish sanoatidagi tadbirkorlik muhitining haqiqiy holatini to'liq baholash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro raqobatning keskinlashuvi va innovatsion rivojlanish talablarining ortib borishi sharoitida qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalasi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) hamda Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari dunyo mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 55–60 foizini tashkil etib, mehnat bozoridagi ish o'rinlarining 65–70 foizini qamrab oladi. Bu raqamlar o'z-o'zidan qurilish sohasidagi tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyatini yaqqol ko'rsatib beradi [7].

Qurilish sanoati o'zining murakkab tarkibiy tuzilishi, yuqori kapital sig'imi, ko'p tarmoqli kooperatsiyaga asoslanganligi va yaratadigan kuchli multiplikativ ta'siri bilan milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Uy-joy qurilishi, sanoat va tijorat obyektlari, ijtimoiy infratuzilma, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, loyiha-qidiruv, pudrat va logistika xizmatlari

2 Manba: Muallif ishlanmasi.



kabi ko'plab yo'nalishlarni o'zida mujassam etgan bu tarmoq xususiy sektorni faollashtirish va investitsiya jarayonlarini jadallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Qurilish sanoatining o'ziga xos xususiyatlari — mahsulotning ko'chmasligi, ishlab chiqarish jarayonining mavsumiy tabiatga qaramligi, ishlab chiqarish siklining uzoq davom etishi, doimiy ish joyining yo'qligi va resurslarning yuqori sig'imi — bu tarmoqdagi tadbirkorlik faoliyatini boshqa sektorlardan tubdan farqlantiradi. Texnika va ishchi kuchining har bir yangi obyekt quriladigan hududga ko'chirilishi, ob-havo sharoitlarining ishlar jadvaliga bevosita ta'siri va moliyaviy resurslarning uzoq muddatga «muzlab» qolishi qurilish tadbirkorligini boshqarishda maxsus yondashuv va mexanizmlarni talab qiladi.

“Tadbirkorlik” va “tadbirkor” tushunchalariga nisbatan iqtisodiy nazariyada yagona qarash shakllanmaganiga qaramay, bu sohadagi yetakchi olimlarning ilmiy merosiga tayanib, to'liq va qamrovli tushunchani shakllantirish mumkin. Robert Xizrich tadbirkorlikni qiymatga ega yangi narsani yaratish jarayoni sifatida ta'riflab, tadbirkorni moliyaviy, ruhiy va ijtimoiy tavakkalchilikni o'z zimmasiga oluvchi va buning evaziga moddiy daromad hamda shaxsiy qoniqish oladigan shaxs sifatida belgilagan. Alan Xosking esa tadbirkorni o'z kapitalini biznesga sarflagan, uni shaxsan boshqaruvchi va barcha qarorlar uchun javobgar bo'lgan hamda korxonaga inqirozga uchragan taqdirda barcha oqibatlarni yolg'iz ko'taruvchi shaxs sifatida izohlagan. Iosif Shumpeter esa tadbirkorni innovatsion jarayonlarning asosiy tashabbuskori, «ijodiy vayronakorlik» orqali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi kuch sifatida ko'rsatgan. Bu ta'riflar bir-birini to'ldiruvchi yaxlit ilmiy tasavvurni shakllantiradi [8].

Qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi bir qator tashqi va ichki omillar kompleks ta'sirida belgilanadi. Tashqi omillar qatorida makroiqtisodiy barqarorlik, normativ-huquqiy tartibga solish tizimining shaffofligi, moliyalashtirish imkoniyatlari, raqobat muhitining sog'lomligi va demografik omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki omillar sifatida esa moliyaviy barqarorlik, texnologik salohiyat, kadrlar kompetentligi va boshqaruv tizimining takomillashganligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qurilish sanoatiga kiritilgan har 1 dollar investitsiya iqtisodiyotning qo'shni tarmoqlarida qo'shimcha ravishda 2,2–2,8 dollar daromad yaratishi (multiplikator ta'siri) bu sohadagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Tadbirkorlik subyektlari rivojlanishini baholashda faqat korxonalar soniga tayanish yuzaki yondashuv hisoblanadi. Ilmiy jihatdan asosli baholash tizimi miqdoriy, sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini bir vaqtda qamrab olishi lozim. Tadbirkorlik faolligi, moliyaviy barqarorlik, band qilingan ish o'rinlari soni, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish darajasi, raqobatbardoshlik va bozordagi ulush ko'rsatkichlari — bularning barchasi birgalikda tahlil qilingandagina qurilish sanoatidagi tadbirkorlik muhitining haqiqiy holati to'liq baholanishi mumkin. Mazkur kompleks yondashuv tarmoqda iqtisodiy faollikning haqiqiy manzarasini yaratishga, zaif tomonlarni aniqlashga va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish faqat alohida korxonalar yoki tarmoq darajasida emas, balki butun milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratish, investitsion jozibadorlikni oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash nuqtayi nazaridan strategik ahamiyat kasb etadigan ko'p qirrali iqtisodiy muammodir. Ushbu muammoni hal etishda davlat, xususiy sektor va ilmiy hamjamiyatning uyg'unlashgan hamkorligi, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribadan samarali foydalanish hamda qurilish tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning izchil va uzluksiz tizimini shakllantirish — barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy va muqarrar shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Business Ready (B-READY) 2024 - <https://www.worldbank.org/en/businessready>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Войнаренко М.П. Кластерные технологии в системе развития предпринимательства, интеграции и привлечения инвестиций // Электронный ресурс: <http://www.unice.org/ie/wp8/documents/novsem.htm>;
4. Войцех Хюбнер. Сектор малых и средних предприятий в Казахстане, Кыргызстане и Узбекистане: ожидания, действительность и потенциал \ Центральный Азия 2010. Перспективы человеческого развития. - с.130-145;
5. Васютин А.В. Предпринимательская деятельность на рынке строительных услуг (на материалах Калужской области). Дисс. на соиск.уч.степ.к.э.н. Москва -2003г.;
6. Гербер Майкл Э. Малый бизнес: от иллюзий к успеху. Возвращение к миру предпринимательства: Пер. с англ. М.: Олимп-бизнес, 2005г.;
7. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2023: An OECD Scoreboard. — Paris: OECD Publishing, 2023.
8. Vasyutichev, A.V. Predprinimatel'stvo v stroitel'noy otrasli. — Sankt-Peterburg, 2015.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100